

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

VAXIDOVA FOTIMA SAIDOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI ZIYORAT TURIZMI
TERMINOSISTEMASI BIRLIKLARINING FUNKSIONAL-DISKURSIV
SHARTLANISHI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract of a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Vaxidova Fotima Saidovna

Ingliz va o'zbek tillari ziyorat turizmi terminosistemasi birliklarining funksional-diskursiv shartlanishi 3

Вахидова Фотима Саидовна

Функционально-дискурсивная обусловленность единиц терминосистемы паломнического туризма в английском и русском языках 21

Vakhidova Fotima Saidovna

Functional-discoursal integration of the units of the pilgrimage term system in the English and Uzbek languages 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of publications..... 45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

VAXIDOVA FOTIMA SAIDOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI ZIYORAT TURIZMI
TERMINOSISTEMASI BIRLIKLARINING FUNKSIONAL-DISKURSIV
SHARTLANISHI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.2.PhD/Fil2539 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Qosimova Nafisa Farhodovna filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Axmedov Oybek Sapobayevich filologiya fanlari doktori, professor Aliyeva Mexrinoza Aybekovna filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «23» dehabr soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14, faks: (0365) 221-27-57, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

382 Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «05» dehabr da tarqatildi.

(2023-yil «05» dehabr dagi 23-32 raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon xalqlari o'rtasida turizm turlarini ommalashtirish va turistik aloqalarini mustahkamlashda diniy, xususan, ziyorat turizmiga daxldor terminlarning o'z o'rnini borligi sababli barcha tillar leksik tizimida turizm terminologiyasi, uning lug'at tarkibi, semantikasi, lingvokulturologik taraqqiyot xususiyatlariga alohida e'tibor qilinadi. Bugungi dunyo manzaralarida xalqaro iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy, madaniy aloqalar qatori ziyorat turizmi jadal rivoji ularga aloqador terminologiyani yangicha tafakkur asosida qiyosiy-tipologik usulda chuqur o'rganish, tarixiy va zamonaviy qatlamini aniqlash, boyish yo'llarini ochish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Bu esa jahon tilshunosligida ziyorat turizmi terminlarining turli tizimdagi tillarda tutgan o'rnini, bir tildan boshqa tilga o'zlashish tamoyillarini, lingvomadaniy, kommunikativ, kognitiv, gender, sotsiolingvistik, metalingvistik xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida «ziyosat turizmi» termini doirasida anglashiladigan voqea-hodisalarning xronologik rivojlanish dinamikasi sohasida amalga oshirilgan ishlar qatorida ziyorat turizmi terminlarining ikki noqardosh, ya'ni ingliz va o'zbek tillari tizimida qiyosiy o'rganilishi shu tillarning lingvomadaniy xususiyatlarini ochish hozirgi chog'ishtirma tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Har bir tilga oid ziyorat turizmi terminlari tizimini, ularning jahoniy va milliy belgilarini aniqlash davlatlararo va xalqaro turistik aloqalarni mustahkamlash hamda tarixiy ahamiyatga ega ziyorat maskanlarini saqlashga va rivojlantirishga doir xorijiy investitsiyalar, grantlarni jalb etish ishlarini kengaytirish imkonini beradi.

Mamlakatimizning bugungi kundagi jadal rivojlanish bosqichida O'zbekiston Respublikasini ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi¹ning davlat dasturida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish va innovatsiya faoliyatini takomillashtirish o'zbek tilshunosligi va tarjimashunosligi oldiga ham fundamental tadqiqotlarni jahon andozalari darajasiga yuksaltirishdek ustuvor vazifani qo'ydi. Bu borada maxsus sohada istifoda etiladigan terminlar, xususan ziyorat turizmiga doir terminlarning lison hamda nutqdagi o'rnini, pragmatik funksional-diskursiv jihatdan motivlashish asoslarini ochish, leksikografik manbalarini o'rganish, terminlarining shakllanish tamoyillari va manbalarini o'rganishga oid tadqiqotlar jahon tilshunosligining tipologik xususiyatlarini aniqlash barobarida milliy-lisoniy belgilarini bilib olishga keng yo'l ochadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son «O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ –

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи 2017 йил, 8 февраль. № 28 (6722).

5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi 100-son «Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida terminshunoslik mustaqil fan sifatida XX asrning 30-yillaridan boshlab tan olingan va tadqiqotchilar terminning xarakteristikalari, belgilari, xususiyatlariga asosiy e‘tiborni qaratishgan. Xorijiy tilshunoslikda H.Felber, P.Faber, M.Temmerman, E.Wüster, T.M.Cabre, J.Pearson, T.Hutchinson, J.C.Sager² kabi olimlar terminlarning umumiy xususiyatlari, leksik-grammatik modeli, termin va terminologiyaning nazariy muammolari ustida ilmiy izlanishlar olib borishgan, lekin ularning ishlari, asosan, leksikografiyaga qaratilgan edi.

Rus va o‘zbek tilshunosligida maxsus sohaga tegishli terminologik qatlamlar S.V. Grinyov, A.B.Superanskaya, Z.I.Komarova, L.V. Vinogradova, E.T. Belan³, M.Umarxodjayev, A.Hojiyev, A.E.Mamatov, D.I.Xodjaeva, M.U.Saidova, H.Dadaboyev, Z.R.Sobirova, M.Mukarramov, G. Muhammadjonova⁴larning tadqiqot ob‘yekti bo‘lib hisoblanadi. N.D. Arutyunova, R.YU.Kobrin, E.S.

²Felber H. Manual of Terminology. – Paris., 1984. – 426 p.; Faber, P. Frame-based Terminology. Amsterdam, 2022. – 598 p.; Timmerman, R. Towards New Ways of Terminology Description. John Benjamins Publishing, 2000 - 258 p.; Wuster, E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Copenhagen, 1985. – 214 p.; Cabre T.M. Terminology. Theory, Methods and Applications. – John Benjamin Publ. Company, 1999. – 262 p.; Pearson, J. Terms in Context [Text] / J. Pearson. – Amsterdam: John Benja-minsl. Publ. Co, 1998. – 243 p.; Hutchinson T., Sager, J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam: John Benjamins Publ. Co, 1990. – 145 p.

³Гринеv, С. В. Введение в терминоведение. – Моск. гос. ун-т им. М.В. Ломоносова, Моск. пед. ун-т. – Москва: Моск. Лицей, 1993. – 309 с.; Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: Вопросы теории. – М.: Эдиториал УРСС, 2004. – С. 248.; Комарова, З.И. Семантическая структура специальных слов и ее лексикографическое описание. - Свердловск: Изд-во Уральского ун-та, 1991. – 155 с.; Виноградова, Л.В. Терминология туризма английского и русского языков в синхронном и диахронном аспектах: Дисс. канд. филол. наук. – Великий Новгород – 2011.; Белан Э. Особенности формирования новых терминосистем (на материале английской и русской терминологий международного туризма): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2009;

⁴Умарходжаев М.И. Очерки по современной фразеграфии. – Т.: Фан, 1977. – 103 с.; Ҳожиёв А. Термин танлаш мезони. – Т., 1996. – 126 б.; Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т., 2002.; Ходжаева Д. Лексикографический анализ лингвистических терминов (на материале толковых словарей английского, русского и узбекского языков). – Т., 2018; M.U. Saidova. Adabiyotshunoslik terminlarining tarkibiy-mazmuniy tahlili va tarjiması. – Buxoro, – 2021. – 124b.; Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – T., 2019. – 118 b.; Собирова З.Р. Ўзбек ва инглиз тилларидаги туризм терминларининг типологияси, ўзаро берилиши ва лексикографик талкини: Филол. фан. номзоди дисс...иши. – Бухоро., 2021.

– 167b.; Мукаррамов М. Терминларнинг лексик-семантик гуруҳланишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983. 1-сон.; Муҳаммаджонова Г. Ўзбек тили терминалогик лексикасининг детерминаллашиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, 3-сон.

Kubryakova, Z.D. Popova, I.A. Sternin, A.Birjakov, V.M. Leychik, D.S. Lotte, K.YA.Averbux, E.I.Golovanova, B.N.Golovin, O.P.Ryabko, V.A. Tatarinov⁵ va boshqalar terminning professional diskurs leksikasini, shuningdek, terminlarning metaforik xususiyatini kognitiv mexanizmlar doirasida tadqiq etishgan. Mazkur dissertatsiyada ingliz va o‘zbek tillari ziyorat turizmi terminosistemi birliklarining funksional-diskursiv shartlanishini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish maqsad qilib belgilandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universitetining 2021-2024 yillarga mo‘ljallangan “Pragmalingvistika, funksional tarjimashunoslik va til o‘rgatish jarayonlari integratsiyasi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillari ziyorat turizmi terminlarining turli diskurslarda vazifadorligini shartlantiruvchi omillarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

terminlar tadqiqiga zamonaviy ilmiy yondashuvlarni o‘rganish;

lisoniy birliklarning terminlik xususiyatiga munosabat bildirish;

ziyorat turizmi terminlarining diskursda voqelanish omillarini belgilash;

ingliz va o‘zbek tillari ziyorat turizmi terminlarini tasniflash va ularning struktur-semantik qoliplarini aniqlash;

ikkala tilda ziyorat turizmi terminlarining shakllanish tamoyillari va manbalarini o‘rganish;

ingliz va o‘zbek tillari ziyorat turizmi terminlari nominativ funksiyalarini qiyoslash.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi leksikografik, publitsistik, ilmiy, ilmiy-ommabop manbalar hamda ziyorat amaliyoti jarayonlari tanlangan.

⁵Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 5 – 32.; Кобрин, Р.Ю., Антонова, М.В. Терминологические системы и их когнитивные модели / Р.Ю. Кобрин, М.В. Антонова // Очерки научно-технической лексикографии. – СПб.: Изд-во С.–Петербург. Ун-та, 2002. – С. 47–66; Кубрякова, Е.С. Роль словообразования в формировании языковой картины мира / Е.С. Кубрякова // Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. – М.: Наука, 1988. – С. 141 – 172; Попова З.Д. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток – Запад, 2007. – 314 с. Биржаков М.Б. Введение в туризм: Учебник. – Издание 8-е, перераб. и доп. СПб.; Издательский дом «Герда», 2006. – 512 с.; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. Изд. 3-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2007. – 256 с.; Лотте Д.С. Основы построения научно – технического терминологии. – Москва: Наука, 1982. – 149 с.; Аverbux К. Я. Общая теория термина. М. Издательство МГОУ, 2006. -252 с.; Голованова Е.И. Введение в когнитивное терминоведение: учеб. пособие. 2-е изд., стер. – М.: Флинта; Наука, 2014. – 256 с.; Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах: Учеб. пособие для филол. спец. вузов. – М.: Высш. шк., 1987. – 104 с.; Татаринов В.А. Лексико-семантическое варьирование терминологических единиц и проблемы терминологии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1988. – 16 с.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillari ziyorat turizmi terminosistemi birliklarining funksional-diskursiv shartlanish qonuniyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvomadaniy, kontekstual, diskursiv, lingvopragmatik, funksional-kommunikativ, kuzatuv, tasniflash hamda elementar statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

termin, terminologiya, terminosistema, maxsus leksik birlik kabi tushunchalarning leksik-semantik, grammatik, diskursiv jihatlari bilan bir qatorda terminlarning tizimlilik, motivatsiyalanganlik, bir ma’ nolilik, aniqlik, qisqalik kabi xususiyatlarini aniqlashda normativ, funksional hamda tizimli yondashuv tamoyillarining samaradorligi aniqlangan;

turizm terminologiyasining rivojlanish bosqichlari va birliklar shakllanishida tillardagi o‘zaro ta’sirning ustuvorligi, mazkur jarayonning nafaqat ekstralingvistik omillarga, balki alohida tillarda so‘zlashuvchilar o‘rtasidagi kommunikativ-diskursiv aloqalarga, nutq faoliyatini voqelantiradigan pragmatik ta’sirga bog‘liqligi isbotlangan;

turli tizimli tillarda ziyorat turizmi terminlarining grammatik, leksik va frazeologik xususiyatlari semantik, struktural va funksional maydon konstituentlarining tasnifiy omillari ekanligi va mazkur omillarning dominant komponent (yadro) atrofida birlashuvchi ikkilamchi (periferik) elementlar qo‘llanishini voqelantiruvchi kuch ekanligi asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillari ziyorat turizmi terminologiyasining tarkibi so‘z yasashning morfologik, sintaktik va leksik-semantik usullari natijasida mazkur tillarning o‘z ichki imkoniyatlari negizida yuzaga kelgan neologizmlar hisobiga boyishi, shuningdek, inson lingvokognitiv faoliyatining verballashuvi natijasida yuzaga keladigan neologizm semantik-pragmatik aspektda polisemiya, omonimiya, variativlik qonuniyatlari doirasida mantiqiy qiymat kasb etishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillari ziyorat turizmi terminosistemasida uchraydigan atamalarining leksik-semantik mohiyati, milliy-lisoniy, nominatsion-motivatsion, uslubiy xususiyatlari ularning yashash tabiiy-iqlim sharoiti, tili, madaniyati, milliy mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyati, e’tiqodiy tushunchalari, o‘ziga xos urf-odat va marosimlari, poetik tafakkur tarzi bilan chambarchas bog‘liqligi isbotlangan;

ingliz va o‘zbek tillari ziyorat turizmi terminosistemasida uchraydigan til birliklarining zamonaviy tilshunoslik qonuniyatlari asosida amalda bo‘lgan antropotsentrik paradigma birlik sifatidagi xususiyatlari jahon tilshunosligining eng so‘nggi yutuqlari asosida aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning lingvomadaniy, kontekstual, diskursiv, lingvopragmatik, funksional-kommunikativ, kuzatuv, tasniflash hamda elementar statistik tahlil metodlari bilan asoslanganligi, nazariy g‘oyalar va ma’lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan

o‘tkazilganligi hamda natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillari ziyorat turizmi terminosistemi birliklarining funksional-diskursiv, kommunikativ shartlanishi, kognitiv xususiyatlari bo‘yicha chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan har bir til tizimidagi mazkur til hodisalarining xususiyatlarini chog‘ishtirma aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o‘rta maxsus, umumta’lim tizimida leksik qatlamlarini farqlash, ziyorat turizmiga doir terminlar qiyosiy tahliliga erishish, terminlar shartlanishining, struktur qoliplarining qiyosiy tahlili bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar o‘tish, «Terminshunoslik», «Terminologiya va tarjimashunoslik», «Kognitiv leksikologiya», «Madaniyatlararo muloqot», «Zamonaviy tilshunoslik» fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida xorijiy tillarni o‘rganishga tashviqni kuchaytirish uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillari ziyorat turizmi terminlarining turli diskurslarda vazifadorligini shartlantiruvchi omillarni aniqlash asosida:

termin, terminologiya, terminosistema, maxsus leksik birlik kabi tushunchalarning leksik-semantik, grammatik, diskursiv jihatlarini bilan bir qatorda terminlarning tizimlilik, motivatsiyalanganlik, bir ma’nodlilik, aniqlik, qisqalik kabi xususiyatlari normativ, funksional (deskriptiv) hamda tizimli yondashuv nuqtai nazaridan aniqlanganligi yuzasidan chiqarilgan xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda FA-FI-005 – “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 09-yanvardagi 17-01/39-son ma’lumotnomasi). Natijada nutq ishtirokchilarining pragmatik va eksperiensial faoliyati muloqotning muvaffaqiyatiga yoki, aksincha, uning tanazzuliga sabab bo‘lishini asoslashga xizmat qilgan;

turli tizimli tillarda ziyorat turizmi terminlarining grammatik, leksik va frazeologik xususiyatlari semantik, struktural va funksional maydon konstituentlarining tasnifiy omillari ekanligi va mazkur omillarning dominant komponent (yadro) atrofida birlashuvchi ikkilamchi (periferik) elementlar qo‘llanishini voqelantiruvchi kuch ekanligi bilan bog‘liq xulosalardan Buxoro davlat universitetida Evropa Komissiyasining Erasmus+ dasturi doirasida amalga oshirilayotgan “TALENT – Establishing Master Programmes in Human Resource Management and Talent Development in Central Asia” mavzuidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 23-apreldagi № 06-01-0112-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha ishtirokchilari va mutaxassislarining ingliz va o‘zbek tillarida ishlatiladigan kommunikativ-lisoniy birliklar xususiyatlari haqidagi bilimlar bazasini yanada kengaytirishga asos bo‘lib xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillari ziyorat turizmi terminosistemasida inson kognitiv va madaniy-lisoniy faoliyatining verballashuvi natijasida yuzaga keladigan neologizm va okkazonalizmlar semantik-pragmatik aspektda polisemiya, omonimiya, variativlik qonuniyatlari doirasida mantiqiy qiymat kasb etishiga doir xulosalardan "Buxoro" telekanalining "Assalom, Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza" teleko'rsatuvlari senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 10-martdagi 02-09-73-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga erishilgan va ko'rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 4 ta xorijiy 5 ta respublika konferensiyalarida qilingan ma'ruzalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Terminologiya va terminologik tizimning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobi to'rt fasldan tarkib topgan. XX-XXI asrlardagi tilshunoslik tadqiqotlariga nafaqat umumiy, balki til zahirasining boy qatlamini tashkil etuvchi maxsus leksikaga bo'lgan qiziqishning susaymayotganligi xosdir. Fan va texnikaning rivojlanishi, insonning kasbiy faoliyatida yangi tushunchalarning paydo bo'lishi bilan maxsus leksik birliklarning soni doimo ko'paymoqda. Maxsus leksika qatlamining jadal rivojlanishi bilan tadqiqotchilarning qiziqishi sezilarli darajada oshmoqda.

Maxsus leksika termini O.S.Axmanova, A.B.Superanskaya, N.V.Podolskaya, N.V.Vasileva⁶lar va boshqalarning asarlarida qo'llanilgan. V.M.Jirmunskiy, V.A.Tatarinov singari olimlar maxsus leksika terminiga yaqin maxsus

⁶Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. энциклопедия, 2004. – С. 474-475; Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: Терминологическая деятельность. Изд. 3-е. М.: Издательство ЛКИ, 2008. – 288 с.

terminologiya⁷ terminini qo‘llashni tavsiya etishadi. V.M.Jirmunskiy, hamda yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchilar, Praga funksional maktabi g‘oyalariga tayanishadi. Shuningdek, ular XX asrning 70-yillarida keng tarqalgan V.M.Leychikning “maxsus maqsadlar uchun til” termini haqida ham fikr bildirishgan.

Ko‘plab tadqiqotchilar terminlar tabiatini o‘rganib, termin xususiyatlari, belgilari va unga qo‘yilgan talablar haqida fikr yuritishadi. Bunda terminning aynan bir xildagi tavsiflari ba‘zi olimlarda belgi sifatida, boshqalarida xususiyat va uchinchilarida talab sifatida ko‘rinadi. Odatda mazkur tushunchalar orasida tenglik belgisi qo‘yiladi. Biroq nazarimizda, talablar haqida emas, balki terminaviylikning xususiyatlari haqida gapirish maqsadga muvofiqdir, chunki talab bu bajarish uchun majburiy bo‘lgan qandaydir qoida, shartdir, xususiyat esa – bu predmetning boshqa predmetlar bilan farqli va o‘xshash, ular bilan hamohanglikda namoyon bo‘ladigan tomonidir⁸. Keltirilgan ta‘riflardan ko‘rinib turibdiki, qo‘yilgan talablarga binoan termin aynan shunday bo‘lishi lozim.

Talablar haqida fikr yuritilganda faqatgina ideal termin haqida gapirish mumkin, chunki ular doimo ham amalga oshmaydi. Fikrimizni Pekarskayaning shu xususdagi fikrlari bilan dalillaymiz: “Terminga qo‘yiladigan talablar terminshunoslik sohasidagi vaziyatga har doim ham to‘g‘ri kelavermaydi, chunki buning imkoni yo‘q⁹. Bundan tashqari, terminlarning asosiy xususiyatlari ajratib ko‘rsatish, birinchi navbatda, ularni umumiy leksika so‘zlaridan chegaralash, ularning farqini aniqlash uchun kerakdir. Shunday qilib, biz terminlikning xususiyatlari haqida gapirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Birinchi paragrafda qayd etilgani kabi D.S.Lotte ham har bir terminga qo‘yilishi kerak bo‘lgan asosiy talablarni, ayniqsa, tizimlilik, motivatsiyalanganlik, bir ma‘nolilik, aniqlik, qisqalikni ajratgan. Bunga ergashgan holda A.A.Reformatskiy, I.N.Volkova, S.V.Grinev va boshqalar mazkur xarakteristikalarni terminning asosiy xususiyatlari deb hisoblashadi. Ularni batafsil ko‘rib chiqamiz.

1) *Tizimlilik*. Har bir termin terminosistemaning ajralmas elementi hisoblanadi, u doimo uning boshqa elementlari bilan doimiy aloqada bo‘ladi. Mazkur xususiyat tadqiqotchilarga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri hisoblanadi.

2) *Motivlanganlik* terminning semantik shaffofligi, ya‘ni uning “lug‘aviy mazmunini” yaratadigan belgilaridir¹⁰. N.P. Romanovanning fikriga ko‘ra termin doimo “umumiste‘molda motivlanmagan so‘z, terminga aylanib tilda motivlanadi”¹¹. V.D. Tabanakova aniqlashtirishicha, termin ikkilamchi va hamisha motivlangan, chunki boshqa so‘zlardan farqli ravishda u maxsus tushunchani

⁷ Жирмунский В. М. Общее и германское языкознание: избранные труды: сборник научных трудов. – Л.: Наука, 1976. – 697с; Татаринов, В.А. Теория терминоведения: история и современное состояние: в 3-х т. / В.А. Татаринов. – М.: Московский Лицей, 1996. – 311 с.

⁸ Фролова И. Т. Философский словарь. – Издательство: Политиздат, 1981. – С.241-446с.

⁹ Пекарская Л.А. Реализация требований к «идеальному» термину в реально функционирующих терминологиях // Термин и слово: Межвуз. сб. науч. тр. – Горький: Изд-во Горьк. ун-та, 1981. – С. 51.

¹⁰ Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – Москва, 1961. – 157с

¹¹ Романова Н.П. Язык власти и власть языка. – М.: Лилия ЛТД, 2000. – 112 с. 1976. С.22.

nomlash uchun yuzaga kelgan¹². V.P. Danilenko dastavval motivlanmagan terminlarni keltirib, ular hosila bo‘lmagan tuzilmalar, atoqli otlardan metonimik tarzda kelib chiqqan kalka-terminlar bo‘lishi mumkin, degan mulohazalarini bildirgan.

3) *Bir mazmunlik*. Mazkur xususiyat anchadan beri haqli ravishda keskin tanqidga uchramoqda. Mazkur leksik shakl boshqa mazmunlarda qo‘llanilsa, bunda u mazkur sohadagi bilimlarga, bir mazmunlikka ta’sir ko‘rsatmaydi¹³.

Haqiqatan ham bugungi kunda aynan bir terminning o‘zi turli tizimlarda turli tushunchalarni ifodalaydi. Masalan *fond* termin sifatida kutubxona ishi, informatika, iqtisod sohalarida ishlatiladi. Hozirgi kunda ko‘plab mualliflar polisemiyaning bir va aynan o‘sha terminosistemada uchrashi haqida gapirmoqdalar. Bunday namunalar ko‘pincha texnika tilida uchrab, termin modda va jarayonni yoki material va jarayonni ifodalab keladi: *mushk* (modda va jarayon), Hajar-ul asvad (material va jarayon). Demak, terminning bir mazmunliligini uning majburiy xususiyati sifatida qabul qilmaslik kerak.

4) *Aniqlik*. Termin qat’iy semantik tushunchaga yoki aniqlikka ega bo‘lishi kerak. R.A.Budagov “termin – qat’iy belgilangan mazmunga ega so‘z”¹⁴, deb aytsa, O.D.Mitrofanova “to‘g‘ri kelishilgan va ishlangan so‘zlar terminlar hisoblanadi”¹⁵, deb qayd etadi. Nazarimizda, har qanday termin aniqlikka intilishi lozim.

5) *Qisqalik*. Ba’zi tadqiqotchilar mazkur xususiyatni alohida ta’kidlashadi. Ularning fikricha, terminning kattaligi nutqda keng ishlatilishiga to‘sqinlik qiladi. I.N. Volkova va V.M.Leychiklar esa, aksincha, terminning ma’lum bir terminosistemada terminlar yaratilishining haqiqiy shartlarida hisobga olinadigan optimal uzunligi haqida gapirishadi.

Turizm o‘ziga xos faoliyat bo‘lib, unda kishilar o‘z muqim yashash joyi, unga yondosh hamda uzoq masofadagi manzillarga borishi, yangi manzara, tabiat, geografik holat, ziyorat va h.k.larni amalga oshirar ekan, kishilarning o‘z yashab turgan va ish joylaridan tashqaridagi joylarda ko‘chishi va bo‘lishi vaqtida sodir bo‘ladigan munosabatlar va hodisalarning majmuasini tashkil etadi. Shu ma’noda ziyorat insonning voqe’likka muayyan munosabatini nazarda tutadi, ziyorat g‘oyasi, o‘z navbatida, alohida shartlar asosida zimmaga olingan harakatlarni ko‘zlaydi, kishining abadiy ma’naviy qadriyatlar o‘rnini o‘tkinchi moddiy qadriyatlarga qurbon qilishga tayyorligining timsoli bo‘lib qoladi. Kishilar o‘z yashash joylarida marosim harakatlarini amalga oshirishga imkon kamligi uchun ziyoratga borishadi. Ziyoratchilar, odatda, xizmat ko‘rsatilishi, joylashish masalalariga talab qo‘yishmaydi. Ular monastirlardagi hujralarda, ibodatxonalar hududlarida va palatkali joylarda kechasi tunash uchun qo‘nib o‘tishadi (misol uchun haj davrida), ibodatxonalarda polda yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chada tunashlari mumkin. Ovqat tanlovi ham, odatda, katta emas va turlari ancha kamdir. Mazkur holatlar ziyorat

¹²Табанакова, В.Д. Идеографическое описание научной терминологии в специальных словарях: дис. ... докт. филол. наук/ В.Д. Табана-кова. – Тюмень, 2001. – 288 с.

¹³Гринев С.В. Введение в терминоведение. – М.: Московский лицей, 1993. – 309 с.

¹⁴Р.А. Будагов // Вопросы языкознания. – М.: "Просвещение", 1965. № 1. – С. 29.

¹⁵Митрофанова О.Д. Язык научно-технической литературы. – Москва: Изд-во МГУ, 1973. – С.34.

turizmi sohasi hodisalari va tushunchalarini ifodalovchi terminologik birliklarni shakl, mazmun, funkcionallik doirasida tadqiq qilinishini taqozo etadi.

Ikkinchi bob “**Ziyorat turizmi terminlarining struktur-semantik modellari**” deb nomlangan. Har qanday terminologik tizim ham sinxron, ham diaxron jihatdan kompleks o‘rganilishi va bayon etilishi lozim. Shunda terminologiya rivojlanish tarixining har tomonlama tahlili termin yaratishning umumiy tamoyillari va ularning qo‘llanilish doirasini aniqlashga imkon yaratadi.

Terminologik tadqiqotlarni diaxronik jihatdan tadqiq etilishiga ko‘plab asarlar bag‘ishlanib, ularda soha terminologiyasining holati, terminlarning manbalari va paydo bo‘lish usullari o‘rganiladi¹⁶. Diaxronik tadqiqotlarda “terminologiyaning paydo bo‘lishi, rivojlanish vaqti va xususiyatlarini aniqlash mumkin bo‘lib, hozirgi kunda shakllanayotgan terminologiya, ko‘pincha, ularning rivojlanish bosqichlarini takrorlaydi: terminologik rivojlanishni belgilaydigan umumiy tendensiyalarni va omillarni, shuningdek, maxsus leksika va uni tartibga solish usullarini aniqlash mumkin” deb hisoblashadi¹⁷. Turizm terminosistemasining tushunchaviy yaxlitligini tadqiq etib uning uyali tuzilmasining xususiyatlarini o‘rganish lozim, chunki «terminologik uyalarning tashkil etilishida mazkur terminosistema bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchali kategoriyalarning o‘zaro ta’siri aniq namoyon bo‘ladi, terminologik uyalarga bo‘lish esa tegishli bilimlarning tushunchalar tizimi bilan bog‘liqdir»¹⁸.

Terminologik uya o‘ziga mazkur termini tashkil etuvchi so‘z yasovchi uyani ham, shuningdek, undan paydo bo‘lgan so‘z birikmasini ham qamrab oladi. Tahlil etiladigan terminosistema doirasida inglizcha uyani tashkil etuvchi 39 (terminlarning umumiy sonidan 3,9%) termin-dominant, ularning atrofida 426 (jami terminologik massivning 43%i) terminning guruhlanishi aniqlandi. Uyani tashkil etuvchi terminlarning soni bir xil bo‘lmay, turizm sohasi uchun uyani tashkil etuvchi terminning ahamiyatiga bog‘liq ravishda 4 tadan 79 gacha o‘zgaradi. Turizm terminlarning so‘z turkumlariga mansubligiga doir quyidagi qiyosiy ko‘rsatkichlar qayd etildi:

	O‘zbek tili		Ingliz tili	
	Terminlarning soni	Tanlamadan % hisobida	Terminlar ning soni	Tanlamadan % hisobida
Ot	678	96,8%	961	97,1%
Fe’l	16	2,3%	21	2,1%
Sifat	6	0,9%	8	0,8%

Terminning shakl jihatini tahlil qilib, ko‘plab tadqiqotchilar terminlarning tarkibiga ko‘ra farqlanadigan ikki asosiy guruhlarini ajratishadi: termin-so‘zlar (bir

¹⁶ Кутина Л.Л. Формирование терминологии физики в России. Период предломоносовский: первая треть XVIII века. – Л.: Наука, 1966. – 287 с.; Снетова Г.П. Русская историческая терминология. – Калинин: КГУ, 1984. – 86 с.; Vasilyeva, N.V., Vinogradov, V.A., Shakhnarovich, A.M. Brief dictionary of linguistic terms. – M., 1991. – 38 p.

¹⁷Гринев С.В. Введение в терминоведение М.В. Ломоносова. Моск. пед. ун-т. – Москва: Моск. Лицей, 1993. – С. 130.

¹⁸Богомолова С.И. Лингвистические проблемы формирования и развития отраслевых терминологических систем» (реф.). – Саратов, 1999. – С. 53-57.

komponentli) va termin-soʻz birikmalar (koʻp komponentli).

Oʻrganilayotgan terminotizimlarda bir komponentli va koʻp komponentli terminlarning tillar boʻyicha taqsimoti quyidagi jadvalda oʻz aksini topgan:

	Oʻzbek tili		Ingliz tili	
	Terminlar soni	Umumiy tanlamadan % hisobidan	Terminlar soni	Umumiy tanlamadan % hisobidan
Bir komponentli	288	41,1%	301	30,4%
Ikki komponentli	378	54%	635	64,1%
Uch komponentli	33	4,8%	37	3,7%
Toʻrt komponentli	1	0,1%	2	0,2%
Olti komponentli	-	-	1	0,1%

Demak, biz tomondan olingan maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilidagi “ziyosat turizmi” terminosistemi shakllanish jarayonida boʻlib, taraqqiyoti davomida allaqachon shakllanib boʻlgan terminosistemalarga intiladi. Koʻp komponentli terminlarning koʻpligi, shuningdek, turizm terminlari ixtisoslashuvi jarayonining jadallashuvidan, terminosistemaning ierarxik tuzilmasining shakllanishidan, terminlar oʻrtasidagi derivatsion aloqalarning oʻrnatilishidan dalolat bermoqda. Oʻzbek va ingliz tillaridagi turistik nomlar roʻyxatining qiyoslanishi, shuningdek, oʻzbek tilida oddiy terminlar yasama terminlardan koʻra koʻpligiini, (mos ravishda 38,5% va 28,1%) ingliz tilida esa mazkur nisbat amalda bir xilligini (35,5% va 34,6%) aniqlashga imkon beradi. Bunday farq shu bilan izohlanadiki, oʻzbek bir komponentli terminlarning yetarli darajada katta qismi oʻzlashtirma soʻzlar hisoblanadi (mehrob, namoz, daxma, qibla, ziyorat, maqbara, minora, masjid, qabr, apgreyd, buking, otel trevelog, botel, djakuzi, kabana, motel, patio, xostel, branch, xab,).

Turistik terminologiyada eng koʻp qoʻllanilgan uslub soʻzlarning birikuvidir. Jumladan, *ot + ot* (muzey-qoʻriqxon, yaxt-klub, kokteyl-zal, gid-tarjimon, yoʻl-xarita, vagon-restoran, lanch-paket, banket-furshet, reliz-data, konferens-zal, vip-tur); *internatsional xarakterdagi oʻzgarma bogʻliq boʻlak + ot* (avtoturist, avtoturizm, avtorestoran, avtokarvon, avtouy, aviareys, aviatarif, aerovokzal, agroturizm, geoturizm, ekoturizm, akvapark).

Oʻzbek tilining terminotizimida murakkab soʻzlarning oʻsishi avvalo, inglizabon termin elementlarning qoʻllanilishi bilan bogʻliq boʻlib, tizimning inglizchaga yoʻnalganligidan dalolat beradi. Turizm terminshunosligiga tegishli murakkab soʻzlar orasida inglizcha soʻzlarning kirishi aniq kuzatilib, ular xalqaro xarakterga ega: *rum-servis, lanch-paket, snek-bar, roup-djamping, split-charter, realiti-turizm, buking-list*.

Oʻzbek tili terminlari tahlili shuni koʻrsatdiki, soʻz birikmalarining sintaktik yasalishi hozirgi kunda termin hosil qilishning eng mahsuldor yoʻli hisoblanadi. Bunda tanlamada ikki komponentli soʻz birikmlari ustunlik qilib, tizimni uzun nomlanishlar bilan toʻyintirmaydi, tizimning tekisligini taʼminlaydi. Ikki komponentli soʻz birikmalarining katta qismi “sifat+ot” va “ot+ot”modellariga

asosan yasalgan. Bunday soʻz birikmalari oʻzida ikki komponentning birlashuvini namoyon etib, ulardan biri asosiy termin hisoblanadi. Soʻz-aniqlovchilar ushbu soʻz bilan birikib, asosiy terminning va terminologik maʼnoni aniqlashtiradi.

Struktura	Model	Jami birlik	Jami, %	Misollar
Ikki komponentli	sifat + ot	310	82,3%	<i>Muqaddas kitob, Muborak safar, katta haj, halol taom, Muqaddas avliyo, toʻliq paket, Charter aviareys, turistik qishloq, tematik park, tabarruk qadamjoh, aziz avliyo</i>
	ot + ot	54	13,8%	<i>Nogironlar aravachasi, ziyoratgoh joy, ziyoratchilar kiyimi, Umra qoʻllanmasi, qabr toshi, Haj vizasi, Paygʻambar ravzalari, ziyoratchilar bejjiki, gid tarjimon, Arafot togʻi, mehmonxona xizmati, qoʻl yuki.</i>
	ot+predlog + ot	14	3,9%	<i>Ravzadagi gumbaz, quduqdagi suv, ziyoratga ruxsatnoma, ziyoratga yoʻllanma, hajdagi amallar.</i>
Jami		378	100%	
Uch komponentli	ot + sifat+ ot	9	27,2%	<i>Ziyorat lyuks paketi, turizmning yuqori konyukturasi, Mehmonxona standartli xizmati, sayohatning mavsumiy tannarxi.</i>
	ot+ pred. +sifat+ ot	7	21,2%	<i>Mehmonxona uchun qoʻshimcha toʻlov, ziyorat uchun turistik xarajatlar.</i>
	ot +ot + ot	5	15,1%	<i>Jahon sayohlik tashkiloti, ziyorat turizmi paketi, transport narxi koeffitsienti, ziyorat manzili xaritasi, qibla (Makka) yoʻnalishi koʻrsatkichi.</i>
	ot + pred.+ ot + ot	3	9%	<i>Ellikboshi hamrohligidagi tur, maqbara joyiga tur, vizalar uchun talabnoma buyutrmasi.</i>
	sifat+sifat+ot	3	9%	<i>Halol tarkibli taom, tashqi/ichki turistik oqim, muqaddas manzilli ziyorat.</i>
	Boshqa	6	18,5%	<i>Shahar boʻylab obzor ekskursiya, “uchinchi yosh” turizmi, ziyoratgohning doimiy mijozi; oilaviy ziyoratchilar tur paketi.</i>
Jami		33	100	
Toʻrt komponentli	Ot+ot+ot+ot	1	100%	<i>Ziyorat xizmatidagi transport vositalari.</i>

Quyidagi jadvalda turistik terminlarining inglizcha tanlamasida ikki komponentli birliklar ustuvor boʻlib, ulardan eng koʻp ishlatilgani N + N (442 atama, 69,6%) modeli ekanligini kuzatish mumkin. Mazkur modelning keng qoʻllanishi shu bilan izohlanadiki, bunday soʻz birikmalar sintaktik munosabatlarni ifodalashning tejamkorlik vositasi hisoblanadi, chunki komponentlar oʻrtasidagi aloqalar soʻzlarning oʻrnini oddiy oʻzgartirish orqali mazkur aloqaning shakliy koʻrsatkichlari ishtirokisiz amalga oshadi.

Struktura	Model	Jami, birlik	Jami, %	Misollar
Ikki komponentli	N + N	442	69,6%	<i>Prayer book, Faith healing, Church porch, Sky temple, icon lamp, icon case, Blessing benediction, church records, communion cup, communion table, Ember days, Hall porter, hospitality praying room, menu card, shoulder season, tourism resources</i>
	Adj + N	181	28,5%	<i>Silk road, sacrificial altar, ritual bath, scared place, Holy See, Cultural heritage, Catholic church, ecumenical council, ecclesiastical law, religion ceremony, connecting rooms, halal hotel, good deed, Holy Qur'an, happy hour, ethnic restaurant, domestic traveler</i>
	N + prp / conj + N	12	1,9%	<i>Mother of God, Object of worship, act of worship, Kingdom of heaven, Bed and breakfast, meet and greet, heads in beds, length of stay, Prince of Peace, demand for tourism, date of departure</i>
Jami		635	100%	
	Adj + N + N	13	35,1%	<i>Supplementary pilgrim accommodation, daily pilgrim flow, same day prayer, large pray room, electronic praying beads,</i>
	N + N + N	11	29,7%	<i>Pilgrimage journey route, worship places itenary, room status board, church candle stand (box), passenger facility charge, country house hotel</i>
	N + conj + N + N	4	10,8%	<i>Mosques and security regulations, food and beverage facilities, hub and spoke tour.</i>
	N + Adj + N	3	8,1%	<i>Pilgrims generating areas, group inclusive tour, horse riding tour</i>
	Boshqalar	6	16,2%	<i>Domestic independent tour, visiting friends and relatives, third and fourth freedom, inbound tourism department, host party logo.</i>
Jami		37	100%	
To'rt komponentli	N + N + N + N	2	100%	<i>Pilgrims' conference room facility, Pilgims pray room mat.</i>

Zamonaviy ingliz tilida ikki komponentli substantiv soʻz birikmalari vazifasi koʻp hollarda otning grammatik imkoniyatlari bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari “predmet” maʼnosidan tashqari, ot turli nominallashtirilgan harakatlar, belgilar, sifatlarni ifodalashi mumkin. Bunday mazmun sigʻimi tufayli inglizcha ot keng birlashtirish imkoniyatlariga, nutqning boshqa boʻlaklari bilan va hatto oʻz-oʻzi bilan kombinatorikaga kirisha oladi¹⁹. Otlarning soʻz birikmalari tarkibiga kirishi ularning “uzunligi” va shuningdek, “chuqurligi”ni taʼminlaydi: otlar guruhi mazmunan juda sigʻimli sintaktik tuzilma hisoblanadi, chunki aniqlovchilar oʻz navbatida, sintaktik guruhlarning yadrolari boʻlishi mumkin.

¹⁹ Бурлакова В. В. Основы структуры словосочетания в современном английском языке. – Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1975. – С. 67.

